

UDK 635.26:631.25:531.2

YANGI YARATILGAN PIYOZNING MALLA NAVINI ISTIQBOLLARI

Sh.S.Ostonov

*SPE va KITI Buxoro ITS ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha direktor
o'rinbosari*

X.Tilloev

*Sabzavot poliz va kartoshka ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi laboratoriyasi
mudiri*

S.S.Orziyev

*Buxoro davlat texnika universiteti "Qishloq va suv xo'jaligi texnika-
texnologiyalari" kafedrasida dotsenti, t.f.f.d.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi sharoitida ertapishar piyozning seleksiya ishlari natijasida yaratilgan Malla navini hosildorlik va yetishtirishda iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: nav namunlari, nav, barg, urug', piyozbosh balandligi, eni, meva vazni, kun, hosildorlik, rentabellik.

Kirish. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasini Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida «Harakatlar strategiyasidan–Taraqqiyot strategiyasi sari» tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan Taraqqiyot strategiyasining 3-yo'nalishida «...qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida ikki baravar oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga yetkazish» bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni bajarishda O'zbekiston sharoitida sabzavot ekinlarini ko'paytirishda piyozning istiqbolli navlarini yaratish va yetishtirish texnologiyasini ishlab chiqish, shuningdek mamlakatimizning o'zida uning urug'chiligini tashkil

qilish talab etiladi.

Sabzavot ekinlarini tashqi muhit omillariga bo'lgan munosabatini bilish va uni ma'lum darajada sozlay olish yuqori hamda sifatli hosil olishga asos bo'ladi. Piyozi – sovuqbardosh o'simlik. Ammo o'suv davrining turli bosqichlarida past va yuqori haroratga talabchanligi turlichadir [1; 25- b].

Urug'i 2-3 °C da unaboshlaydi; unishi uchun eng qulay harorat 20 °C. Ochiq maydon sharoitida urug'larni unib chiqishi ma'lum darajada tuproq haroratiga bog'liq bo'lib, nihollarni hosil bo'lishi 9 – 10 kundan 25 – 30 kunda yuzaga keladi [2; 64 - b].

Piyozi ildiz tizimi harorat 25 °S gacha bo'lsa yaxshi rivojlanib - 4-6 °S va qisqa muddatli - 15 °S sovuqqa bardosh beraoladi [3; 346 – 589- b].

Materiallar va uslublar: yuqoridagilarni hisobga olgan holda Respublikamiz iqlim sharoiti mos yangi yaratilgan ertapishar piyozi Malla navini yetishtirishda hosildorlik ko'rsatkichlari va iqtisodiy samaradorlik natijalari har tomonlama o'rganildi.

Tadqiqotlar maqsadidan kelib chiqib, 2018-2020 yillarda ertapishar piyozi Malla navini yetishtirishda hosildorlik va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari taxlil qilindi.

Natijalar va munozara. Bugungi kunda sabzavot ekinlarini iqtisodiy samaradorligini oshirish va uning turlarini ko'paytirish orqali aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va sog'lom ovqatlanish portfelini yaratish bo'yicha qator ilmiy va amaliy ishlar olib borilmoqda. Shu munosabat bilan ushbu tadqiqotida ertaki piyozi hosil olishga mos va nushpiyozi (sevok) usulida yetishtirishga yaroqli nav-namunalarini yaratish muhim ahamiyatga ega bo'lib, ushbu masalalarni hal etish esa respublikada eng ko'p iste'mol qilinadigan asosiy sabzavot ekinini hisoblanuvchi piyozi ertaki yuqori va sifatli mahsulot yetishtirishda yuzaga kelayotgan qator muammoli masalalarni yechimini topish imkonini beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ertapishar piyozi navlarini yaratish orqali mamlakatimiz aholisini ana shu vitaminlarga bo'lgan talabini qondirish bilan birgalikda, piyozi navlarini ko'paytirish maqsadida olib borilgan tadqiqotlar

natijasida ertapishar piyozning Malla navi yaratildi va ularning tanlov sinovi tashkil etildi.

2021 yilda ertapishar piyozning L-9 tizmasi Malla nomi bilan yangi nav sifatida O'zbekiston Respublikasi davlat nav sinash markaziga mualliflik guvohnomasi olish va O'zbekiston Respublikasi xududida ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xo'jaligi ekinlari davlat reestriga kiritish uchun ariza hamda patent olish uchun tegishli xujjatlar va urug'lar Intellektual mulk agentligiga topshirildi.

Ertapishar piyozning Malla naviga Intellektual mulk agentligi tomonidan 10.04.2025 yil № NAP551 raqamli patent olindi.

Sinalayotgan navning hosildorligi standartga nisbatan biroz yuqori bo'lib, umumiy hosildorlik 46,7 t/ga ni tashkil etdi. Bu standartga nisbatan 5,6 t/ga yoki 13,6 % ko'p demakdir.

Tovarbop hosildorlik har ikkala navda xam yuqori bo'lib, 93,6-97,5 foizni tashkil etdi.

Piyozbosh vazni bo'yicha ham navlar o'rtasida farq kuzatildi. Malla navini o'rtacha ildizmeva 131,5 g ni tashkil etib, standartga nisbatan 25,9 g ko'p bo'lganligi kuzatildi.

Piyozning yangi navi tanlov sinovi uchun qo'yilgan tajribalar o'rtasidagi xatoliklar ($EKTF_{05}$ t/ga) 0,57 t/ga yoki variantlar o'rtasidagi farq ($S_x, \%$) 0,11 % ni tashkil etdi.

Olib borilgan tadqiqotlarda eng yuqori rentabellik darajasi Malla navida kuzatildi va 76,6 % ni tashkil etdi.

Nazorat navda barcha xarajatlar 12 412 ming so'mni tashkil etdi. Malla navida bo' ko'rsatkich 13 224 ming so'mni tashkil etdi. Bu nazorat navga nisbatan Malla navidan olingan hosilni yig'ish xarajatlari bilan izohlanadi.

Tanlov sinovidagi har ikkala navdagi piyoz hosili 1 kilogrammi o'rtacha 500 so'mdan sotildi. Nazorat Sumbulla navida sof daromat 20550 so'm/ga ni tashkil etdi. Malla navida esa bu ko'rsatkich 23350 so'm/ga ni bo'lib, standart navga nisbatan 2800 so'm/ga ko'p daromat olindi va rentabellik darajasi

76,6 foizni tashkil etdi.

Shu bilan birgalikda navlar o'rtasida nazoratga nisbatan Malla navida 5,6 t/ga ko'shimcha hosil olindi. Olingan qo'shimcha hosildan 3640 ming so'm/ga daromad olindi.

Navlarni o'rganishdan olingan sof foyda har bir gektar yerdan 3640 ming so'mni tashkil etdi.

Sinovdagi navlarni yetishtirishda iqtisodiy samaradorlik hisoblashdan olingan natijalardan xulosa qiladigan bo'lsak yangi yaratilgan ertapishar piyozning Malla navini yetishtirish orqali yuqori hosil va rentabellik erishish mumkinligi isbotlandi.

Xulosalar

1. Piyozning L-9 tizmasidan yakka tanlash va avlodini baholash asosida yangi Malla navi yaratilgan. Ushbu navga Intellektual mulk agentligi tomonidan NAP № 551 raqamli patent berilgan.

2. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida piyozning ertapishar Malla navi hosildorligi ilmiy tadqiqotlarga ko'ra 46,7 t/ga ni tashkil etadi.

3. Piyozning ertapishar Malla navi yetishtirish orqali ertaki hosildorlik bilan birgalikda gektariga 76,6 foiz rentabellik erish mumkin .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Генейди, Г.С. Биологическое изучение важнейших видов лука в связи с их биологическими особенностями: автореф. дисс.канд. биол. Наук // Г.С.Генейди. - Л., 1971 – С.25.

2. Дятликович, А. Лук // М.: Московский рабочий, 1968 – С.64.

3. Brewster, J.L., A Comparison of Relative Rates of Different Individual Plants and Different Cultivars of Onion of Diverse Geographic Origin at Two Temperatures and Two Light Intensities. // J.L. Brewster, A. Barnes. - Journal of Applied Ecology, Vol. 18.1981 – P. 346-589.